

**BALXDA TUG'ILGAN BUYUK MUTASAVVIFNING TA'SIRI.****ALLAYAROV DONIYOR ISLOM O'G'LI.**

Ajiniyoz nomidagi NDPI tayanch doktoranti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk tasavvuf vakili, mutafakkir va shoir Jaloliddin Rumiy hayoti, uning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan shaxslar, yashagan muhit hamda u yaratgan bebaho asarlarning tasavvuf, axloqiy-tarbiyaviy va pedagogik jihatlari yoritiladi. Ayniqsa, Rumiy va Shams Tabriziy o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlik hamda “Masnaviy” dostoni orqali uning so'fiylik tafakkuri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Rumiy, tasavvuf, tarbiya, Shams Tabriziy, Masnaviy, Balx, Konya, pedagogik qarashlar.

Jaloliddin Muhammad Rumiy Sharq mutafakkirligi tarixida o'zining chuqur falsafiy qarashlari, tasavvufiy tafakkuri va axloqiy-tarbiyaviy g'oyalari bilan ajralib turadigan buyuk mutasavvif, shoir, alloma va pedagogik tafakkur egasi bo'lgan. U 1207-yil 30-sentyabrda Balx shahrida tug'ilgan. Uning otasi Bahouddin Valad ham zamonasining yetuk olimlaridan bo'lib, “Sulton ul-ulamo” (olimlar sultoni) laqabini olgan. Rumiy bolaligidan zamonasining yetuk olimlari qo'lida tarbiya topgan. Otasining ilmiy davralari, safarlar davomida Yaqin Sharq, Arabiston va Kichik Osiyo madaniy makonlari bilan tanishishi uning dunyoqarashi shakllanishida muhim rol o'ynagan. U Qohira, Makka, Damashq kabi ilm va ma'rifat markazlarida bo'lgan. Nihoyat, ular Konya shahriga joylashadi. Shu yerda Rumiy butun umri davomida ilmiy, adabiy, tasavvufiy va pedagogik faoliyat olib borgan. Jaloliddin nafaqat diniy-huquqiy, balki, aniq fanlar sohasida ham yaxshi tahsil olgan, arab, yunon tillarini, “Qur'on”ni va uni tavsirini yaxshi bilgan.

XIII asrda Konya shahrida Sulton Valad so'filik Mavlono ordenini ta'sis etib, marosimlarda Rumiy asarlaridan foydalanilgan. Rumiy — Usmoniylar Turkiyasidagi eng obro'li darveshlarning hamda bizning davrimizdagi mavjud tariqatning ma'naviy davomchisi. Uning otasi Muhammad Baxouddin Valad so'fi va diniy-olim bo'lgan. Shuning uchun ham u Xorazm shohi Muhammaddan saroyida xizmat qilish taklifini oladi. Ammo Valad o'z e'tiqodida mustahkam, chuqur bilimga ega va juda haqqoniy bo'lgan. Turli vajlarga ko'ra, u shohning iltimosini rad etib, bolalarga dars berish uchun maktabda qoladi va ilmiy hamda ijodiy faoliyatini davom ettiradi. Shu sabab Xorazm shohi bilan o'rtalarida kelishmovchilik yuzaga keladi. Haj safarini amalga oshirish maqsadida, u oilasi bilan Balxni tark etadi.

Makkaga safari chog'i, Nishopurda u shayh Farididdun Muhammad Attor bilan suhbat qurish sharafiga muyassar bo'ladi. Qiziquvchan shayh Rumiya bog'lanib qoladi va unga



o'zining “Asrornoma” kitobini bag'ishlab, Jaloliddin uni doim yonida olib yuradi. Rumiylar she'riyat, falsafa va dinshunoslik bobida bu qadar cho'qqilarga erishishiga o'sha davrlarning ma'rifatparvarlari shayh Shams Tabriziy va Farididdun Attorlarning hissasi beqiyosdir. Shams Tabrizdan u falsafa, xususan, so'fichilik bilan tanishadi.

1228 yil Valad Kunyadagi madrasasida muallimlik o'rnini egallash taklifini oladi va o'sha yerga ko'chib o'tib, tez orada, 1231 yil vafot etadi va uning madrasadagi o'rnini Jaloliddin egallaydi. Bir yildan so'ng Jaloliddin madrasada dars berish bilan birga, Valadning fikrdoshi Burxon id-Din Muhaqqiqning shogirdiga aylanadi. Bu ma'naviy tarbiya, deyarli o'n yil davom etdi: u barchaning hurmatiga sazovor mudarris va masjid xotibi bo'lib qolish barobarida, o'z oilasi bilan bekamu-ko'st va xotirjam hayot kechiradi.

Jaloliddinning so'filik yo'liga tushishi daydi so'fi va'zxoni Shamsiddin Tabriziylarning ismi bilan bog'liq. Bu darveshning xutbalari va u bilan shaxsiy suhbatlari va keyinroq sirli g'oyib bo'lishi Jaloliddin qalbini butunlay o'zgartirib yuboradi. Uchrashuv quvonchi-yu, do'stiga bo'lgan kengqamroqli muhabbat va judolik fojiasini tuyib, u butun dunyoga taniqli daho shoirga aylandi.

Ammo Jaloliddin 1247 yili g'oyib bo'lgan, unga ma'naviy fazilatlarini yodga solib turuvchi o'qituvchisi Shamsiddinsiz ortiq yashay olmay, ijodini ham davom ettirmasdi. Yosh zargar Salohiddin Zarkub ham sevimli ustoziga aylanib qolgan edi, u 1258 yili vafot etganidan so'ng, uning o'rnini Husamiddin Hasan bosadi.

Aynan Husamiddin oldida Jaloliddin ko'plab she'riy asarlari insoniyat uchun yozib, saqlanib qolganligi uchun qarzdor, zero, shoir ularni odatda o'qib berar yoki hirgoya qilib berardi. Uning taklifiga va yordamiga binoan, Jaloliddinning asosiy asari - olti bobli “Masnaviy” (“Yashirin ma'no haqida doston”) yaratilgan. O'zining yashirin ma'nosida ushbu doston so'fichilik ensiklopediyasi hisoblanadi, lekin unga bu jihatdan faqat so'fichilik yo'lidagilargina baho bera olib, unda G'azaliy, Sanoiy, Attor va o'z davrining boshqa ba'bro' so'fichilarining taraqqiy g'oyalarini ko'ra oladilar. Bolaligidayoq u Xurosonning asosiy shahri - ona yeri Balxni tark etishga majbur bo'ladi.

Rumiylar davrida islom dunyosida turli oqimlar, ilohiyot, fiqh, falsafa, sufiylik kabi sohalar taraqqiy etgan edi. Bu ilmiy-madaniy muhit, ayniqsa, tasavvuf maktablarining keng rivojlanishi, uning dunyoqarashi va pedagogik qarashlarining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

U zamonasida nafaqat diniy ulamo, balki ruhiy-ma'naviy yetakchi sifatida tanilgan. Uning shogirdlari orasida zamonasining yirik olimlari, adiblari, davlat arboblari va xalq vakillari bo'lgan. Ayniqsa, Rumiylar hayotida Shams Tabriziy bilan uchrashuv yangi bir bosqich bo'lib, uning ichki ruhiy yuksalishida burilish yasagan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Jaloliddin Rumiylar - nafaqat tarixiy shaxs, balki bugungi kunda ham dolzarb bo'lgan ma'naviy meros egasi. Uning asarlaridagi muhabbat, poklik, ichki uyg'onish, ruhiy kamolot va insonparvarlik g'oyalari zamonaviy jamiyat tarbiyasi uchun ham muhim



ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rumi, J.M. Masnaviy Ma’naviy. Tarjimalar to‘plami.
2. Shams Tabriziy. Maqolat. Toshkent, 2001.
3. Attor, F. Asrornoma. Eron nashri, 1998.
4. Nasr, S.H. Sufi Thought and Islamic Spirituality. 2000.
5. Bobomurodov, H. Sharq mutafakkirlari. Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
6. Komilov, N. Tasavvuf va ma’naviyat. Toshkent, 2008.
7. Internet havolalari.